

PAPER

TEXNIKA SOHASIGA OID AYRIM LEKSEMALARNING MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Dilshoda Qosim qizi^{1,*}

¹Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti tayanch doktoranti

*dilshidahudoyberdiyeva@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada texnika sohasiga oid oziga xos leksemalarning morfologik va semantik xususiyatlari organiladi, bu atamalarining turli texnologik kontekstlarda qanday ishlatilishi va ushbu leksemalarning yasaliishi, morfologiyasi organiladi. Ushbu maqolada texnik terminologiyaning lingvistik xususiyatlarini chuqur organib, bu leksemalarning shakllanishi, manosi va amaliy qo'llanilishi yoritib berildi. Bu ilmiy ish nominativ tuzilmalarning o'ziga xos jihatlarini texnik tilda va ularning professional tilshunoslar o'rtasida aniq muloqotni taminlashdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Misollarni tahlil qilish va zamonaviy texnologik ishlanmalarning til evolyutsiyasiga tasirini ko'rib chiqish orqali maqola texnik atamalar va uning morfologik va semantik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro tasirni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Key words: semantika, mavzuviy guruhlash, go'sht qiymalagich, kofe qaynatgich, sovitkich, elektr soch kesish mashinasi, tikuv mashinasi, vertikal changyutgich, elektr isitgich.

Kirish

Hozirgi kunda, maishiy texnika sohasiga oid leksemalarni kelib chiqish etimologiyasi, nomlanishi, ozlashma soz sifatida tilga kirib kelishi haqida toliq organib chiqish tilshunoslik sohasi rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Texnika sohasiga oid ayrim leksemalarni mavzuviy guruhlab, ushbu guruhga kiruvchi bir qator leksemalarning morfologik qurilishi, semantikasi va nominativ xususiyatlarini organish tilshunoslik sohasi uchun juda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Maishiy texnika sohasiga oid leksemalar haqida o'rganish davomida so'z, leksema va terminga berilgan tariflarni ko'rib chiqamiz. So'zga oid eng so'nggi tarifni akademik Azim Hojiyev berdi. Unga ko'ra so'z: Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik mano va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi [1]. Tilshunoslik sohasida texnika nomlarini o'rganar ekanmiz so'z, leksema va ter-

min atamalarini o'rganish zaruriyatini his etamiz. Texnologiyaning jadal rivojlanishi nafaqat yangi tushunchalarni nomlashni, balki qo'llaniladigan terminlar bo'yicha kelishuvni ham talab qiladi. Termin so'ziga D.A.Rozarenov quyidagicha tarif keltiradi: Terminning funksional nazariyasiga ko'ra, deyarli istalgan so'z termin bo'la olishi, va aksincha, istalgan termin terminlik xususiyatini yo'qotib, umumistemol so'zga o'tib qolishi mumkin [2]. Zamonaviy terminologiyaning asoschisi Vena maktabi deb ataluvchi maktabning asosiy vakili hisoblangan avstriyalik E. Vyuster hisoblanadi. U 1930-yillarda doktorlik dissertatsiyasida terminologiyada ish usullarini tizimlashtirish haqida misollar keltirdi, terminlar bilan ishlashning bir qator tamoyillarini belgilab berdi va terminologik malumotlarni qayta ishlash metodologiyasining asosiy tamoyillarini belgilab berdi [2].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada maishiy texnika sohasiga oid leksemalarni morfologik va semantic jihatlarini qiyosiy tahlil qilindi. Shu bilan bir qatorda, texnologiya sohasiga doir terminlarni kelib chiqishini o'rganish va nomlanish tarixini o'rganish jarayonida so'zlarning etimologiyasi tahlil qilinib, maishiy texnika nomlari kelib chiqishida lekse-

malarning etimologiyasi muhim ekanligi o'rganib chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili

Maishiy texnikaga oid o'zlashma leksemalarini ularning turlari va ishlatilish funksiyasiga ko'ra quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi tematik guruhga oshxona asbob va uskunalarini kiritdik. Oshxona jihozlari, ehtimol, ovqat tayyorlash, pishirish va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashni osonlashtirish uchun mo'ljallangan asboblarning yasash usullarini tahlilga tortamiz. Dastlab pishirish uchun mo'ljallangan asboblari: elektr qozon, elektr bosimli tez pishirgich, kofe qaynatgich, vafli pishirgich, bug'da pishirish uskunasi, guruch pishirgich kabilarni kiritishimiz mumkin. Keyingi oshxona jihozlari turkumiga kiruvchi ovqat va ichimliklar tayyorlash uchun foydalaniladigan asboblarni tahlil qilamiz. Bularga sharbat chiqargich, go'sht qiymalagich, kofe maydalagich, elektr pichoq, sharbat siqish uchun uskuna va shu kabi asboblari kiradi. Oxirgi turga esa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun asboblari: sovitkich, muzlatgich, vacuum qadoqlagich, oziq-ovqat quritgichi va shunga o'xshash maishiy texnika nomlarini kiritish mumkin.

Ushbu turkumga kiruvchi maishiy texnika nomlarining ayrimlarini morfologiyasi, semantikasi va nominativ xususiyatlarini tahlilga tortamiz. Masalan, kofe qaynatgich bu so'z kofe (ot) va qaynatgich esa ikkita morfemadan iborat: qaynat (fel) va -gich ot yasovchi affiks lardan iborat. Kofe mustaqil so'z, qaynatgich esa murakkab so'z bo'lib, fel va suffiksning birikmasidan hosil bo'lgan. Kofe qaynatgich so'zining semantikasi kofe tayyorlash uchun mo'ljallangan asbob yoki qurilma. U odatda, suvni qizdirish va uning ichiga kofe qo'shib, aralashtirib, tayyorlash jarayonini osonlashtiradi. Bu leksema nominativ holatda ishlatilganda, unga murojaat qilinayotgan narsaning o'zini, yani qaynatgichni anglatadi. Go'sht qiymalagich so'zi ikki qismdan iborat bo'lib, go'sht asosiy so'z, qiymalagich sifat-dosh so'z hisoblanib, maydalamoq fel shakliga -gich affiksini qo'shish orqali yasalgan. Bu so'zning semantikasi go'shtni maydalash uchun mo'ljallangan mashina yoki asbob manosi bildiradi va nominative xususiyati o'ziga xos bo'lib, u go'shtni qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan texnik asboblarni bildiradi. Uning ish faoliyati oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi [1]. Sovitkich so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha tarif berilgan tex. 1 Oziq-ovqat mahsulotlari yoki tez ayniydigan mahsulotlar past temperaturada saqlanadigan inshoot yoki qurilma; xolodilnik. Ikki kamerali sovitkich. 2. Konditioner. Qaldirg'och.. xonani bir aylanib, derazaning yuqori ko'ziga o'rnatilgan sovitkich ustiga qo'ndi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma [2]. Sovitkich ot so'z turkumiga kiradi va morfologik qurilishi: sovitmoq feliga -kich suffiksi qo'shilishi orqali yasalgan. Sovitkich so'zining manosi sovitish uchun mo'ljallangan qurilma. U mahsulotlarni sovitish va saqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi guruh tozalash asboblari va anjomlarini o'z ichiga oladi. Ushbu turkumga uyni saqlash bilan bog'liq turli xil vazifalarni aks ettiruvchi yashash joylarini toza va tartibli saqlash uchun mo'ljallangan qurilmalar kiradi. Changyutgichlar: tik vakuum, kanister vakuum, robotli vacuum, nam/guruq changyutgich, silindrlil changyutgich, elektr pol yuvish uskunasi, vertical changyutgich, cho'tkali changyutgich, suvli yuvish changyutgich kabi texnika vositalarini kiritish mumkin. Changyutgich so'zini morfologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, bu leksema vertical (sifat) va changyutgich (ot) so'z turkumlaridan tashkil topgan. Changyutgich so'zini o'zi chang (o'zak) + -yut (o'zak qism) + -gich (suffiks) kabi morfologik qurilishga ega. Bu so'z affiksatsiya usuli bilan yasalgan bo'lib, -gich suffiksi qo'shilishi natijasida ot turkumiga mansub bo'lgan yangi so'z hosil qilingan. Semantik xususiyatlarida manosi katta xonalar va ko'plab gilamli uylar uchun mo'ljallangan, minimal kuch bilan samarali tozalashni taminlaydigan zamonaviy jihoz. Vertikal changyutgich so'zi texnologiya, uy-joy texnikasi va tozalash vositalari sohasida qo'llaniladi. Tozalash

asboblardan keng qo'llaniladigan kir yuvish mashinasini yaratish uchun dastlabki harakatlar XVIII asrdan boshlangan, ammo eng mukammal tarjiba Alva Fisherga tegishli bo'lgan. Aynan u 1919-yilda barcha zamonaviy kir yuvish mashinalarimiz prototipiga aylangan elektr kir yuvish mashinasini patentlagan [3]. Kir yuvish asboblari ham ikta turni o'z ichiga oladi; kir yuvish mashinalari: Oldindan yuklaydigan kir yuvish mashinasi, yuqori yuklanadigan kir yuvish mashinasi, idish yuvish mashinasi va quritish moslamalari: kiyim quritgich, barabanli quritgich va quritish moslamasi. Bundan tashqari, qattiq yuzalarni tozalash asboblari ham alohida kiritib o'tsak bo'ladi. Bularga bug'li tozalagichlar: qo'lda ishlaydigan bug' tozalagich va bosimli yuvish mashinalari: elektr bosimli yuvish mashinasi, gaz bosimini yuvish mashinasi va shu kabi texnika asboblari kiradi.

Maishiy texnikalarni tematik guruhlashning uchinchi turiga iqlimni nazorat qiluvchi asboblarni kiritdik bo'ladi. Iqlimni nazorat qiluvchi maishiy texnika vositalarini isitish, sovitish va havo sifati toifalariga guruhlash mumkin: - isitish moslamalariga quyidagilarni kiritamiz kosmik isitgichlar: elektr isitgich va markaziy isitish tizimlari kiradi. Havoni sovitish moslamalariga esa havo tozalagich va uy namlagichlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu guruhga kiruvchi elektr isitgich leksemasini morfologik jihatdan tahlil qilamiz. Elektr isitgich morfologik qurilishi jihatidan elektr (sifat) + isitgich (ot) so'z turkumlaridan tashkil topgan. Isitgich so'zining o'zi ham -gich suffiksini isitmoq feliga qo'shish orqali yasalgan. Elektr isitgichdan mashinasozlik, oziq-ovqat sanoatida, kimyo sanoatida, tibbiyotda va kundalik hayotda, asosan, binolarni isitish uchun, maishiy elektr jihozlari (choynak, dazmol va boshqalar) keng miqyosda foydalanish mumkin [4]. Tematik guruhlashning 4-turiga shaxsiy parvarishlash asboblari kiritdik. Zamonaviy hayotda o'z-o'ziga g'amxo'rlik tobora ko'proq ustuvor bo'lib borayotganligi sababli, biz kundalik hayotimizda bu kabi maishiy texnika asboblardan juda ko'p marta foydalanamiz. Hozirda, eng katta maishiy texnika asboblari bo'lgan talab ham aynan shu turga kiruvchi asboblari ekanligini guvohi bo'lib turibmiz. Bularga sochni parvarish qilish uchun asboblari: soch quritgich va pardozlash asboblari: elektr soch kesish mashinasi, elektr soqol mashinasi, elektron go'zallik asboblari [5]. Shaxsiy parvarishlash asboblari turkumiga kiruvchi elektr soch kesish mashinasi leksemasini morfologik jihatdan xususiyatlarini keltirib o'tamiz. Bu leksema elektr, soch, kesish va mashinasi so'zlaridan iborat. Bu iborada elektr sifat, soch asosiy obyekt, kesish harakatni bildiruvchi fel, mashinasi esa mashina so'ziga tegishlilikni anglatadigan qo'shimcha qism hisoblanadi. Semantik jihatdan, elektr soch kesish mashinasi soch olish jarayoniga aloqador bo'lib, elektr quvvatdan foydalanishni bildiradi va bu qulaylik va tezlikni anglatadi.

Maishiy texnikaga oid leksemalarning beshinchi turi hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan beshinchi mavzuviy guruhiga aqli maishiy texnika turlari kiradi. Texnologiyaning paydo bo'lishi bilan ko'plab maishiy texnika kengaytirilgan ulanish va innovatsion xususiyatlarni taklif qiluvchi aqli qurilmalarga aylandi. Aqli (smart) oshxona anjomlari: aqli muzlatgichlar: Wi-Fi bilan jihozlangan, sensorli ekranli muzlatgich. Aqli tozalash asbobiga smartfon ilovasi bilan Wi-Fi-ga ulangan robot changyutgich va aqli kir yuvish mashinasi - masofadan turib nazorat qiluvchi kir yuvish mashinalari kiradi. Bundan tashqari, aqli uy ekotizimlari va aqli dinamiklarni ham shu turkumga kiritishimiz mumkin.

Maishiy texnika nomlarini oltinchi tematik guruhini kundalik ehtiyoj uskunalarini deb nomladik. Bu turga bir qator uy jihozlari nomlari kundalik maishiy uskunalar mavzuviy guruhining faol soz birliklariga aylandi. Bularga misol sifatida quyidagi maishiy texnika nomlarini kiritamiz: tikuv mashinasi, toquv mashinasi, elektr ustara, soch oladigan mashinka kabilari kiradi. Tikuv mashinasining etimologiyasi uzoq tarixga ega, tikuv jarayonini mexanizatsiyalash zaruratga aylanib, XIV asrga kelib yelkanlarni tikish mexanizmi ishlab chiqildi. Tikuv uchun to'liq ishlaydigan tikuv mashinasi 1790-yilda ingliz Tomas Sent tomonidan patentlangan, ammo keying asrgacha ishlaydigan model yaratilmagan. Tikuv uskunalarini

ishlab chiqishning navbatdagi muhim bosqichi amerikalik Elias Xouning ixtirosi edi. Bu ikki ip bilan tikilgan tikuv mashinasi edi. Qo'lda tikuvchilikka nisbatan potensial afzalliklariga qaramay, mashina istemolchilar orasida keng qabul qilinmadi. Isaak Singer Elias Xou modeliga juda o'xshash ishonchli mashinani yaratib, tikuv mashinalari tarixidagi asosiy shaxsga aylandi. 1851-yilda Singer patent oldi va mashinalar ishlab chiqarishni boshladi [6].

Tikuv mashinasi atamasi ingliz tilidagi sewing machine so'zini to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilingan sew (tikish) va machine (mashina) so'zlari birikmasidir. Tikuv mashinasi leksemasi tikuv felidan kelib chiqqan sifat, mashina so'zi asosiy obyekt va si tegishlilik qo'shimchasi mavjud. Tikuv mashinasi so'zi kiyim-kechak tikish, bezash, qavish va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan qurilmani anglatadi, semantik jihatdan, tikuv mashinasi tikuv jarayoniga aloqador bo'lib, turli xil operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan qurilmalarni anglatadi [1].

Xulosa

Texnika sohasiga oid leksemalarning morfologik va semantik xususiyatlari tilning taraqqiyot va yangilanishlarga moslashuvchi dinamik xususiyatini namoyon qiladi. Morfologik tahlil texnika sohasiga oid atamalarning o'z ichiga affiksalar, birikmalarni o'zlashtirilishi, yangi tushunchalarning tez rivojlanishi va integratsiyalashuvini aks ettiradi. Semantik jihatdan bu leksemalar oziga xos va keng manolarni ozida mujassam etgan bolib, kopincha aniq texnik malumotlarni yetkazuvchi jargonni o'z ichiga oladi. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, uning boglangan leksemalarining morfologik va semantik tuzilmalarini o'rganish tilshunos olimlar uchun dolzarb masala bo'lib qoladi. Ushbu izlanishlar natijasida malum bo'ladiki, texnologiya tili nafaqat aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki jamiyat taraqqiyoti va madaniy moslashuv belgisi sifatida ham aks etadi.

References

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Shelov S. D. Termin. Terminologichnost. Terminologich-eskiye opredeleniya: (monografiya). – Sankt- Peterburg: Filologicheskii fak. Sankt- Peterburgskogo gos. un-ta, 2003.
3. Ashurova S. Terminologiya va terminlarning nazariy masalalari haqida. Xorijiy tillar tadqiqi va talimi muammolari, 2025.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL). 1-5 jildlar. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. <https://daryo.uz/2025/01/10>
7. Suvanova L.S., Mamatkosimov M.A. Elektr isitgichlar va ularning turlari. TIQXMMI bosmaxonasi 2021-yil.
8. <https://www.drsolemoid.com/uz/household-appliance-application>
9. <https://www.intelltex.uz>